

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI***Djalilov Rahmonkul Hamidovich****Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD*djalilovraxmonqul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq sohasida amalga oshirilayotgan soliq siyosatining qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish mexanizmlariga ta'siri o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma'muriyat chiligi, qo'shilgan qiymat solig'i, elektron hisobvaraq-faktura, raqamli soliqqa tortish.

Kirish

Mamlakatimizda so'ngi yillarda buxgalteriya hisobi sohasida ham bir qator islohatlar olib borilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni[1] va 2020 yil 24 fevraldagagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-ton qarorida[2] mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, moliyaviy va soliq hisoblarini uyg'unlashtirish vazifasi qo'yilgan edi. Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlash uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan MHXSlari o'zbek tiliga tarjima qilindi va 2021 yildan boshlab yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishmoqda hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tgan yuridik shaxslar 2020- yil 20-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 3221-1 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga[3] qo'shimchalar kiritish asosida soliq hisobotlari, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobot shakllari MHXSlariga yaqinlashtirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritishda MHXS asosida tashkil etishda bir qancha xalqaro standartlaridan foydalilanildi.

Xalqaro amaliyotda qo'shilgan qiymat solig'i buxgalteriya hisobining obyekti sifatida hisobga olishda bir nechta MHXSlardan foydalilanildi, jumladan, MHXS (IFRS) 5 - "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar", MHXS (IFRS) 13 - "Haqqoniy qiymatni baholash", BHXS (IAS) 2 - "Tovar-moddiy zaxiralar", BHXS (IAS) 7 - "Pul mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot", BHXS (IAS) 8 - "Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o'zgarishlar va xatolar", BHXS (IAS) 11 - "Qurilish shartnomalari", BHXS (IAS) - 12 "Foyda soliqlari", BHXS (IAS) 16 - "Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar", BHXS (IAS) 17 - "Ijara", BHXS (IAS) 19 -

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

“Xodimlarning daromadlari”, BHXS (IAS) 28 - “Qaram tadbirkorlik subyektlaridagi va qo’shma korxonalardagi investitsiyalar”, BHXS (IAS) 36 - “Aktivlarning qadrsizlanishi”, BHXS (IAS) 38 - “Nomoddiy aktivlar”, BHXS (IAS) 39 - “Moliyaviy instrumentlar” kabi standartlardan. Shuningdek, qo’shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobini tashkil etishda 15-son MHXS «Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum» nomli standartdan foydalaniladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan so‘ngi yillarda qabul qilingan hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, qo’shilgan qiymat solig‘i hisobini xalqaro tan olingan standartlar asosida yuritish bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qo’shilgan qiymat solig‘i hisobini takomillashtirish borasida ko‘pchilik iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

K.M.Misirov “Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasida qo’shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ining moliyaviy hisobini takomillashtirish muammolarini o‘rgangan va yechimi sifatida bir qator takliflarni bergen[4]. Ushbu ilmiy ishda qo’shilgan qiymat solig‘ining moliyaviy hisobini amaldagi foydalanilayotgan schyot faktura shaklini takomillashtirish asosida QQS bazasini aniqlashtirish masalalari yoritilgan.

K.R.Xotamov o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida qo’shilgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq bir qator masalalarni tadqiq qilgan. Jumladan, mahsulotlar eksportini tasdiqlash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish, qo’shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha nol darajali stavkani qo’llash, avtomatlashtirilgan tizimda hujjatlar asosida soliq auditini o‘tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schyotlardagi bog‘lanishlarini amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar.

K.R.Xotamovning ta’kidlashicha: hisobda buxgalteriya yozuvlarining mohiyatan to‘g‘ri berilishi hisob-kitob ishlaridagi chalkashliklarni bartaraf etadi, moliyaviy va soliq hisobotlarni tuzishda xatoliklarga yo‘l qo‘ylmasligini ta’minlash maqsadida ortiqcha to‘langan bilvosita soliqlar summalarini qaytarilishini 6410-“Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotidan emas, taklif qilingan 4420-“Budgetga ortiqcha to‘lovlar” schyotidan qaytarish taklifi berilgan (1-jadval).

1-jadval

Nol darajali stavkani qo’llash bo‘yicha operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi [5]

T/p	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	21-son BHMS asosida		Berilayotgan taklif asosida	
		Dt	Kt	Dt	Kt
1.	Xom-ashyo va materiallar sotib olinganda to‘langan qo’shilgan qiymat solig‘i summasiga (eksport korxonalarida)	4410*	6010	4420	6010
2.	Nol darajali stavkani qo’llash bo‘yicha budgetdan mablag‘ning qaytarib olinishiga	5110	6410	5110	4420
3.	Nol darajali stavkani qo’llash natijasida hosil bo‘lgan summani boshqa soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish uchun yo‘naltirganda	6410	4410	6410	4420

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

4.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda to‘liq hisoblangan qo‘silgan qiymat solig‘i summasiga	-	-	9430	6410
5.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda ilgari xomashyo va materiallar sotib olinganda to‘langan qo‘silgan qiymat solig‘i summasining hisobga olinishiga	-	-	6410	4420
6.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda budgetdan bo‘lgan qarzdorlik hisob-kitob schyotidan o‘tkazib berilganda	-	-	6410	5110

Sotilgan tovarlar bo‘yicha hisoblashishlar amalga oshirilganidan keyin ma’lum bir sabablarga ko‘ra qaytarilgan tovarlar va ular bo‘yicha to‘langan qo‘silgan qiymat solig‘i summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish mobaynida sotilgan mahsulotning puli to‘langanligi yoki to‘lanmaganligiga e’tibor qaratish kerak hamda hisoblashuvlariga qarab buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

A.B.Abdullayev o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘silgan qiymat solig‘i hisobini takomillashtirishda asosan elektron hisobvaraqt-fakturalarga urg‘u bergen[6].

Bugungi kunda elektron shakldagi hisobvaraqt-fakturalardan amaliyatda qo‘llash natijasida: tadbirkorlik subyektlari uchun elektron hisobvaraqt-fakturani rasiylashtirish tartibi osonlashadi hamda vaqt sarfi kamayadi;

qo‘silgan qiymat solig‘ining to‘g‘ri hisoblanishi va budgetga o‘z vaqtida undirilishini tezkor nazorat qilish imkoniy yaratiladi;

qo‘silgan qiymat solig‘ini budgetdan qaytarib olish tartiblari yengillashtiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan elektron schyot-fakturalardan foydalanish natijasida hisob-fakturalarni soliq hisobotlarida aks ettirmaslik holatlari, import qilingan tovarlar uchun bojxonada to‘langan QQS summalarini ortiqcha miqdorda hisobga olish evaziga QQS summasini kamaytirish holatlari, hisob-fakturalarni qalbakilashtirish, QQS to‘lovchi bo‘lmagan korxonalar hisobiga QQS summasini hisobga olish ya’ni qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ochish xolatlarining oldi olinadi va bu esa soliq siyosatini takomillashuvi hamda iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqarishiga olib keladi.

A.Akramovning ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘silgan qiymat solig‘i auditini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda, qo‘silgan qiymat solig‘i hisobining ba’zi masalalarini yoritib bergen. Taftishchilar tomonidan qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobotlarda ko‘rsatilgan soliq bazasiga tuzatish kiritilishini tekshirishda tuzatishlarning hujjatlarda asoslanganligi o‘rganiladi. Shuningdek, bu operatsiyalarni buxgalteriya hisobining boshlang‘ich hujjatlari va schyotlariga to‘g‘ri olib borilishi aks ettirilganligi tekshiriladi[7].

Bizning fikrimizcha, yuqorida ilmiy ishlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida qo‘silgan qiymat solig‘i hisobining o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha hisobga olinmagan. Shuningdek, qo‘silgan qiymat solig‘i hisobini MHXSLariga transformatsiya qilish jarayonidagi muammolar yoritilmagan. Respublikamizda buxgalteriya hisobini MHXS o‘tkazish va transformatsiya qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi PQ-4611-son “Moliyaviy

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagи 507-sон “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari qabul qilingan[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz metodologiyasi bo‘lib, soliq siyosati va qo‘silgan qiymat solig‘i hamda soliq imtiyozlari bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Soliq imtiyozlari bo‘yicha nazariy asoslar umumlashtirildi hamda uning hisobini MHXS asosida takomillashtirish tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisobga olishdagi asosiy boshlang‘ich hujjat hisobvaraq-faktura bo‘lib hisoblanadi va u O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-moddasida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qo‘silgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq ba’zi normalar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobida qanday tartibda aks ettirilishini ko‘rib chiqamiz. Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisobga olishda ishtirok etadigan schotlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qo‘silgan qiymat solig‘ini buxgalteriya hisobida aks ettirishda ishtirok etadigan schytot tizimi [9]

Schytotlar raqami	Schytotlar nomi
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schytotlar
4310	TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar
4410	Budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovleri (turlari bo‘yicha)
5110	Hisob-kitob schyoti
5210	Mamlakat ichidagi valyuta schytotlari
5220	Chet eldagagi valyuta schytotlari
5510	Akkreditivlар
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schytotlar
6240	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar
6310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar
6410	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz: QQS bo‘yicha qarz
7010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schytotlar
7310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar
9010	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar
9020	Tovarlarni sotishdan daromadlar
9030	Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar
9040	Sotilgan tovarlarning qaytishi
9110	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

9120

Sotilgan tovarlarning tannarxi

Biz xo‘jalik yurituvchi subyektning hisob tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi schotlarida qayd qilib borish jarayonlarini yoritib berishdan voz kechgan holda, BHMS-21 keltirilmagan operatsiyalarning ba’zilarini ochib berishga harakat qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmaga tovarni bepul berilishini kiritish tartibi belgilangan. Ushbu jarayonlarni aks ettirish bilan bog‘liq qo‘shilgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobi schotlarida quyidagicha aks ettiriladi.

3-jadval

Bepul berilgan mahsulot va tovarlarga tegishli QQS hisoblashni schotlarda aks ettirish

№	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Buxgalteriya yozuvlari		
		Summa (ming so‘m)	Schotlar korrespondensiyasi	
			Dt	Kt
1.	Xarid qilingan tayyor mahsulotlarning qiymati hisobdan chiqarishida	2 500 000	9110	2810
2.	Xarid qilingan tovarlarning qiymati hisobdan chiqarishida	1 500 000	9120	2910
3.	Xarid qilingan tayyor mahsulotlarga tegishli QQS summasiga	300 000	9110	6410
4.	Xarid qilingan tovarlarga tegishli QQS summasiga	180 000	9120	6410
5	QQS budgetga to‘lab berilishida	480 000	5110	6410

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zining hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schotlar rejasiga qo‘shilgan qiymat solig‘i 6420-“Budgetga qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarz” schyotda hisobga olinishi belgilab qo‘yishlari mumkin. Masalan, tayyor mahsulotning realizatsiyasini quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

DT schyot 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”;

Kt schyot 9010-“Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”.

Ushbu operatsiya bilan bog‘liq qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga quyidagi buxgalteriya yozushi amalga oshiriladi:

DT schyot 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”;

Kt schyot 6420-“Budgetga qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarz”

Qo‘shilgan qiymat solig‘ida nol darajali stavkani qo‘llash hisobini to‘g‘ri tashkil etish va ma’lumotlarning ishonchligini ta’minlash maqsadida 6420-“Budgetga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovleri bo‘yicha qarz” schyoti bo‘yicha quyidagi ishchi schyotlarni ochish va ularni schyotlar

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

rejasiga kiritish tavsiya qilamiz:

6420- schyot-“12% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS”;

6421- schyot-“0% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS”.

Schyotlarning harakatlanishini quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari orqali ko‘rishimiz mumkin.

4-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektda sotilgan mahsulot va tovarlarga tegishli QQS hisoblashni schyotlarda aks ettirilishi, ming so‘mda

Nº	Xo‘jalik operatsiyalari mazmuni	Soni	Narxi	Summasi	QQS stavkasi	QQS summasi	Jami QQS bilan birga
1	Mahsulot realizatsiya qilindi	15	5000	75000	12	9000	84000
2	Ish bajarildi	1	10000	10000	0	0	10000
	Jami	16		85000		9000	94000

Tayyor mahsulotning sotilishi quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

DT schyot 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” 85 000 ming so‘m;

Kt schyot 9020-“Tovarlarni sotishdan daromadlar” 85 000 ming so‘m.

Bu operatsiya bilan bog‘liq QQS summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi tuziladi:

DT schyot 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” 9 000 ming so‘m;

Kt schyot 6420-“12% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS” 9 000 ming so‘m;

Kt schyot 6421-“0% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS” 0 so‘m.

Bu o‘zgarishlar qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotlarini tuzishni osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarga asosan xulosa qiladigan bo‘lsak, soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini MHXSlari talablari asosida yuritish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda qo‘silgan qiymat solig‘ini 6420-“12% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS”, 6421-“0% stavkada sotib olingen tovar-moddiy zaxiralarga QQS” schyotlarda hisobini yuritish natijasida, qo‘silgan qiymat solig‘i hisobi xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobida aniq va shaffof tarzda olib borilishini ta’minlaydi hamda qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotlarini tuzishni osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Murtazayev, N. R., & Saloxiddinov, J. U. (2023). INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 56-60
2. Rashidov, R. I., Murtazayev, N. R., & Baratova, S. S. (2020). Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari.". Agroprocessing" jurn, 7(2), 29-34

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

3. Ruziyev Zafar Ikromovich, & Abdullayev Olim G'ayratovich. (2023). PROBLEMS OF LIBRARY AND INCREASE COMPETITIVENESS OF NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY. Open Access Repository, 4(3), 201–206. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/C9H4M>
4. Ruziyev Zafar Ikromovich, & Abdullayev Olim G'ayratovich. (2023). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Open Access Repository, 4(03), 50–56. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/2MWYE>
5. Uralovich, R. S., & Ikromovich, R. Z. (2023). Ways And Prospects of Reforming the Budget-Tax Policy in The Stabilization of Local Budget Revenues. Web of Business: Journal of Business Management and Economics, 1(1), 19-22
6. Shavazov, K., Berdimuratov, P., Abdulmajidov, X., Telovov, N., Murtazayev, N., & Razikov, N. (2021). The Performance Of The Dredger With The Movement Of The Bucket According To Strict Guidelines. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 26(1), 515-521.
7. Djalilov, R. H. "Cameral management in the reform of administration and tax control. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 472-477." 2020
8. Муртазаев, Н. Р., & Рузимаматов, И. А. (2022). СУФУРТА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 603-610
9. Турсунов, Ш. Х., & Муртазаев, Н. Р. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ХАВФЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ. Scientific progress, 3(3), 105-114.
10. Shuxratovna, Y. S. (2021). Pul-kredit siyosatining iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini modellashtirishning innovatsion yondashuvlari. Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik akademik jurnali, 311-318.
11. Якубова, III. III. (2019). Таргетирование инфляции—современное направление совершенствования денежно-кредитной политики.“.
12. Ruziyev Zafar Ikromovich, & Suyunov Dostonbek Rustamovich. (2024). Digital in the Bank System of Uzbekistan Financial Services Application Mechanisms. International Journal of Scientific Trends, 3(2), 62–64. Retrieved from <https://scientifictrends.org/index.php/ijst/article/view/228>
13. Ruziyev Zafar Ikromovich, & Anvarov Asliddin Nabijon ugli. (2023). THE MAIN FACTORS OF THE STABILITY OF THE BANKING SYSTEM. Intent Research Scientific Journal, 2(12), 51–54. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/274>
14. Djumaev Panji Khurramovich, & Ruziev Zafar Ikramovich. (2023). THE ROLE OF THE CREDIT SYSTEM IN THE ECONOMY. Open Access Repository, 4(2), 253–258. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/Q28GE>
15. Zhumaev Panzhi Khurramovich, & Ruziev Zafar Ikramovich. (2022). Role of the Credit System in the Economy. The Peerian Journal, 13, 74–79. Retrieved from <https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/429>
16. Ikromovich, R. Z., & G'ayratovich, A. O. (2022). BYUDJET TAQSIMOTIDA TA'LIM XARAJATLARINING ULUSHI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 55.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

17. Khamidovich, T. S., Ikramovich, R. Z., Rashidovich, M. N., & Mirjamilovich, I. A. (2021). Specific Features And Development Trends Of The Activities Of The Infrastructure Of The Insurance Market Of Uzbekistan. *The Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(1), 1545–1550. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/65>
18. Prospects for Increasing the Competitiveness of Private Enterprises in Territorial Development TS Khamidovich, RZ Ikromovich Academic Journal of Digital Economics and Stability, 85-90
19. Маҳаллий бюджет даромадларини шакллантириш ва самарадорлигини ошириш истиқболлари ZI Ruziyev "Инновацион технологиялар" илмий-техник журнал 39 (3), 92-9
20. Ҳудудларнинг ижтимоий-иктисодий барқарорлигини таъминлашда банк хизматларининг ўрни ZI Ruziyev "Biznes-Эксперт" журнали 150 (6), 20-24
21. Investitsiyalarni jalb etish istiqbollari Murtazaev, N. R. XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI 1 (1), 39-4
22. Development Trends of the in the Insurance Market in Uzbekistan MN Rashidovich Academic Journal Incorporations
23. Investment Attraction Prospects Murtazaev, N. R. Spanish Journal of Innovation and Integrity 1 (1), 112-114
24. Omanov, Rustam F., et al. "Accounting Process in the Republic of Uzbekistan." International journal of health sciences, vol. 6, no. S3, 2022, pp. 6306-6311, doi:10.53730/ijhs.v6nS3.7396
25. Murtazayev N.R. O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI [Электронный ресурс]// Экономика и социум.-2024.- №4(119) URL:https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_77084d94706e45be80ee14074629f445.pdf?index=true
26. Murtazayev N.R. TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLASHTIRILGAN MOLIYAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI [Электронный ресурс]// Экономика и социум.-2024.- №4(119) URL:https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_2692022c66114914b16ab527b9c034a8.pdf?index=true
27. MAHALLIY BYUDJETLARNING HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHIGA TA'SIRI Murtazaev, N. R. SYNERGY: JOURNL OF ETHICS AND GOVERNANCE 1 (5), 21-26
28. O'zbekiston iqtisodiyotida sug'urta faoliyatining tutgan o'rni Murtazaev, N. R. XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –12/2-2023 1 (12), 74-7
29. N. R. Murtazayev. (2023). INFLUENCE OF LOCAL BUDGETS ON SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 1(8), 43–46. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/324>
30. FEATURES OF THE CREDIT MECHANISM OF INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS Murtazaev, N. R. Central European Management Journal 1 (1), 2934-2938

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

31. Ways to Ensure the Financial Sustainability of Insurance Companies and Increase its Efficiency Murtazaev, N. R. 4th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements 1 (1), 22-25
32. Khamidovich, T. S. ., Ikramovich, R. Z. ., Rashidovich, M. N. ., & Mirjamilovich, I. A. . (2021). Specific Features And Development Trends Of The Activities Of The Infrastructure Of The Insurance Market Of Uzbekistan. The Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(1), 1545–1550. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/653>
33. Farmonovich, O. R. . (2024). Understanding Financial Performance: Key Metrics and How to Calculate Them. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(3), 330–333. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/2812>
34. Omanov Rustam Farmonovich, & Rafov Quvonchbek Xusin o'g'li. (2023). PROSPECTS FOR DIGITIZATION OF MANAGEMENT ACCOUNTING. Conferencea, 9–12. Retrieved from <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3007>
35. The Contribution of Private Investment to the Growth of Exposure in OurCountry. Авторы Davlatova Dinara Yulduz Murtazayevna Hasanova. Дата публикации 2024/3/2 Журнал AMERICANJournalofPublicDiplomacyandInternational. Том .2. Номер 3. Страницы 412-415.Издатель <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/4154/3646>
36. CHARACTERISTICS OF CREDIT MECHANISM OF INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS. Авторы Ҳасанова Юлдуз Муртазаевна.Дата публикации 2024.Журнал GOSPODARKA I INNOWACJE. Страницы Volume: 46 | 2024. Издатель https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2456/2276